

O'RTA ASR TARIXIY MANBALARIDA BOYSUN ATAMASINING QO'LLANILISHI

Avazxonov Tohir Anvar o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boysun atamasining o'rta asr tarixiy manbalarda qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Bir qancha tarixiy manbalar asosida, jumladan Firdavsiyning "Shohnoma"sida, Istaxriyning "Kitab al-masalik val-mamalik" asarida, muallifi nomalum "Hudud ul-olam"da, Abu Said Gardiziyning "Zayn ul-axbor" asarida, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlarida Boysunning O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Chag'aniyon, Bartold, temir darvoza, Basand, Istaxriy, Mosand, Hudud ul-olam, Chig'atoy ulusi, ulug'tog', Mahdi, kaxlaga, Gardiziy.

Boysun atamasi O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixidan boshlab muhim ahamiyat kasb etib keladi. Ushbu nom geografik hudud va madaniy meros sifatida turli davrlarda turli tarixiy manbalarda uchraydi. Boysun qadimgi davrlardan boshlab Chag'aniyon tasarufida bo'lgan. Bunga ko'plab dalillar mavjud, xususan Chag'aniyonning o'rta asrlardagi tarixi va geografiyasini akademik V.V. Bartold mukkamal o'rganib, Chag'aniyon tarixining asosiy tarkibiy qismiga Boysun hududini ham kirgizib, moddiy va ma'naviy madaniyatida muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlab o'tgan.²⁴³ Shuningdek, Chag'aniyon va Boysun tarixini ilmiy tahlil etishda taniqli akademiklar G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, U. Islomov hamda professor va fan nomzodlaridan L.I. Albaum, A.S. Sa'dulayev, B.A. Turg'unov, M.X. Isxokov, Z.A. Xakimov, T.J. Annayev, Z.A. Arshavskaya kabi olimlar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

IX asrda yashab ijod etgan fors-tojik mutafakkir shoiri Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida Boysun aymog'i haqida shunday yozib qoldirgan: "Munojotdan keyin Barzuni orqaga surib ketish sari andok ravon ayladikim, to'qson bosh qadam orqasiga surib, to boshiga ko'tarib, taxtai zaminga andok urdikim, az farq to poshna yerga naqsh bog'ladi. Rustam Palang arslon yanglig' Barzu siynasida tog'dek og'irlik ko'rguzib, ul holatda xanjari taxmuras devbandni ellofdan chiqarib, bo'g'ziga qo'ydi. Bu xanjarni darozligi o'ttiz ikki gaz, kengligi tabon yo quyoshdek namurd shul'a berur edi. Xoxladimki, boshini tanidan judo qilgay, bir ovoz Rustam qulog'iga keldi. Dedikim "Ey Rustam, ba haqqi din vasin,

²⁴³ Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. Академнashr, 2011. — В. 26-27.

qo'lingni andek saqla, Rustam nazar qilib, ko'rdikim, Barzuni onasi-Sheruya mardonavor, engil erkakcha kiygin. Rustam, Suhrob otini eshitib, Barzu siynasidan qaro yer ustiga xanjarni tashladi. Dedikim: "Nechukdin Suhrobga o'g'il bo'ladi?". Sheruya aytdi: "Ul kunekum, Suhrob bu jonibga, yuz kelturdi. Boysun degan aymoqdin meni kelturib va nikohiga nikoh qilib bog'lab erdi. Va bu bilak uzuk va manga atom bergan anomga. Atom-Rustam esdalik berib, ekan. Man sanga berdim. Agar o'g'il tug'lsa, bilagiga band etgil. Agar qiz farzand tug'lsa, kokiliga bog'lagil. Men atom Rustamni ko'rib, jamoli jahon orasidan ko'zimni yoritib, yonib, bu yerlarga kelsam, u bozuband nishonasi birla izlarni topib olurman", deb bu bozbandni omonat berib edi. Erim Suhrob Xudoyi taoloni taqdiri birla o'zlarini qo'llarida ajal sharbatni ichib, halok bo'ldi. Agar bobar qilmasalar, Bozbandni yechib ko'rsinlar..." Shox Rustamning naverasi Bargunni onasi Boysunlik kelini Sheruya xonimni Boysun aymog'idan o'z tanlab kelin qilish qilgan ekan.²⁴⁴

Ilk o'rta asrlarda Boysun o'mida Basand atamasi qo'llanilgan. Basand aholisining etnogenezi, enik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jaligi, turar-joy binolarini, mustahkam qal'alari bilan shuhrat qozonganligi ta'kidlab o'tiladi. VI-XIII asrlargacha Basand atamasi qo'llanilgan. Xususan Istaxriyning "Kitab al-masalik val-mamalik" va muallifi nomalum "Hudud ul-olam" asarlari tasdiqlaydi.

Abu Isxoq Istaxriyning "Kitab al-masalik val-mamalik" (mamlakatlar yo'llari to'g'risida kitob) asarida Basandning nomi Mosand shaklida ham qayd etilganni va Samarqand yo'lida joylashgan mustahkam shahar, uning aholisi zich bo'lib, urushga moyil bo'lganini ta'kidlab o'tadi.²⁴⁵

Muallifi nomalum "Hudud ul-olam" asarida ham Bosandning aholisi ko'pligi, Buxoro va Samarqandga boradigan yo'lida joylashganligi, mustahkam qal'aligi va aholisi jangovorligi yozib qoldirilgan.²⁴⁶

Arxeologik manbalarga ko'ra Basanda hayot ilk o'rta asrlardan mo'g'ullar istilosigacha davom etgan. Mo'g'ullar bosqinidan vayron bo'lgan shahar keyinroq qayta tiklanadi va Chig'atoy ulusiga mansub ko'chmanchi turkiy qavmlar "Boysun" deb nomlashadi. Boysun atamasining tarkibida "boy" va "sin" birikmalaridan tashkil topib, ular manbalarda "ulug' tog'" yoki "katta tog'" ma'nolarni bildirib, qadimiy turkiy qavmlarda turli tabiiy narsalarga sig'inish bilan birga toqqa sig'inish ham mavjud bo'lib, tog'lar muqaddas sanalgan.

²⁴⁴ Абулқосим Фирдавсий. Шохнома. (Танланган дostonлар) – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1984. – Б. 677

²⁴⁵ Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. (Йўллар ва ўлкалар китоби). Араб тилидан таржима: Р.Т.Худайбергaнов. – Тошкент: Фaн, 2019. – Б. 214

²⁴⁶ Худуд ул-олам. (Мовароуннахр тавсифи) (Масул мухариб М.Исхоков). Тарж.: О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 14

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning davlat kishilari yashagan bo'lib, "Boysun" atamasi boylar qishlog'i ma'nosini anglatgan.

IX asrda yashab o'tgan mashhur muarrix Abu Said Abdulkay ibn Zaxxok ibn Maxmud Gardiziy o'zining "Zayn ul-axbor" asarida, Nux ibn Nasr va Abu Ali Chag'oni o'rtasidagi janglar haqida gapirar ekan, Chag'aniyon bilan birga Bosandni ham keltirib o'tadi. Bosandda hijriy 322-yilda o'zini Mahdi deya atab soxta payg'ambar o'zining diniga davat qilganini, ko'plab odamlar uning qilgan makrlariyu, xiylalariga ishonishganini va hech qancha vaqt o'tmay Abu Ali Abu Talxa buyrug'i bilan soxta payg'ambarni qatl qildirilganini yozib qoldirgan.²⁴⁷

Boysunning qaytadan iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi Temur va temuriylar davrida sodir bo'lgan. Garchand, Boysun va uning atrofida temuriylar davri yodgorliklari keng ko'lamda o'rganilgan bo'lmasa-da, bu yurtning temuriylar davlatida tutgan o'rni xususida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Buni quyidagi tarixiy manbalardan biri Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnomasi" ham tasdiqlaydi: Amir Sohibqiron o'z dilini Amir Husayinga qarshi muholiflikka chog'lagach, ko'p lashkar to'plab yo'lga tushdi. Kaxlaga²⁴⁸dan o'tib, Boysun mavzeiga yetdi. Amir Xusayn tomonidan Malik va Abdulloh Bayrov sirdan tinchlik va sulx o'rnatmoqchidek, ammo aslida yasovuriylar lashkarini (fitnaga) qo'zg'atish uchun yetib keldilar. Amir Choku va Abbos Baxodir ham shu mavzeda kelib qo'shildilar. Amirlar Malik va Abdulloxni qo'lga olish kerak deb maslaxat berdilar. Amir Sohibqiron bunga rozilik bermadi va shunday dedi: "Bu fikr to'g'ri emas, chunki bu kunlar davlatimizning boshlangich kunlaridir. Agar biz ularni qo'lga olsak, boshqa kishilar tisarilib qoladilar va biz tomonga kelishdan ikkilanishga tushadilar. Qaysi bir podshox o'z ishini manmanlik va bevafoqlik asosida ko'rsa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi. Biz o'z saltanatimizni odamlarga e'tibor berish va ularni himoya qilish asosiga ko'rayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz. Ana shundan keyin agar ular buning qadrini bilmasalar, nonko'rlik maqomiga qadam qo'ysalar, u holda bizning davlatimiz ularni o'z qaxru g'azabiga duchor qiladi, ularning yomon qilmishlari o'zlariga qaytadi", dedi-da darhol otiga mindi, ularga ijizat berib qaytarib yubordi. So'ng Qarshiga kelib tushdi...²⁴⁹

²⁴⁷ Абу Саид Гардизи. Зайнал-Ахбар. Л. М. Епифановой. – Б. 59

²⁴⁸ Kaxlaga – turkiycha "Temir darvoza" degan ma'noni anglatib, Boysun tuman markazidan 35 kilometr, Darband qishlog'idan 9-10 kilometr shimoli-g'arbda "Sarimos" qoyasidagi darada joylashgan. O'z navbatida Kaxlaga atamasini birinchilardan bo'lib Sharofiddin Ali Yazdiy va Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin.

²⁴⁹ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарк, 1997. – 384 б. + 16 илова.

Ispaniyalik elchi Rui Gansalens de Klavixoning “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayyoxat kundaligi (1403-1406-yillar)” asrida ham ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Boysundan uncha uzoq bo’lmagan “Temir darvoza”ga quyidagicha ta’rif bergan. “Ertasi kuni, dushanbada, elchilar guruhi baland tog’ning etagida dam oldilar. Bu baland tog’ning cho’qqisida xilma-xil naqsh va turli-tuman bezaklarga bezalib juda moxirona bunyod etilgan salbsimon bino joylashgan. Bu tog’ juda baland, unda inson qo’li bilan yaratilgandek yo’lak bor, bu yo’lak dara orqali uni kesib o’tish mumkin. Har tarafdin sip-silliq va baxaybat tog’ cho’qqilari bo’y cho’zgan. Bu yo’lakning o’rtasida qishloq joylashgan bo’lib, uning tepasida baland qoyalar muallaq turgandek. Bu yo’l tog’larda “Temir darvoza” deb ataladi, bu yerlarda bundan boshqa yo’l yo’q. Bu darvoza Samarqand podsholigini Kichik Hindistondan qo’riqlaydi. Samarqand yerlariga ayni shu darvoza orqali kirib borilgan, Shuningdek Samarqand imperiyasi ahli ham Hindistonga boshqa joydan emas, xuddi shu yo’l orqali o’tib borishgan va “Temir darvoza” ning egasi Temurbek hisoblanadi. Bu darvoza unga yil mobaynida juda katta foyda keltiradi. Samarqandga va undan shimoldagi yerlarga kichik Hindistondan kelgan karvonlar ana shu darvozadan o’tadi.”²⁵⁰

Xulosa o’rnatida shuni aytib o’tish mumkinki, Boysun atamasi o’rta asr tarixiy manbalarida keng miqyosda tilga olinib, O’rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatida muhim ahamiyat kasb etgani va Boysunning qadimiy davrlardan boshlab geografik hudud va madaniy meros sifatida tutgan o’rni ko’rsatib o’tilgan. Ilk o’rta asrlar va rivojlangan o’rta asrlardagi tarixiy manbalarida ko’p marotabalab tilga olingan bo’lib, Firdavsiyning “Shohnoma” asaridan tortib, Istaxriyning “Kitab al-masalik val-mamalik”, “Hudud ul-olam”, Gardiziyning “Zayn ul-axbor” va Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlarigacha bo’lgan manbalarda Boysunning nomi turli shakllarda, ammo doimiy ravishda tilga olinadi. Boysun hududining geografik va madaniy o’rni ta’kidlovchi ushbu manbalar, uning tarixiy jihatdan naqadar muhim ekanligini ko’rsatadi.

Boysun, o’zining strategik joylashuvi va tabiiy sharoitlari tufayli qadimdan ko’plab madaniyatlar va siyosiy kuchlarning chorrahasida turgan. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida Boysunning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi, uning O’rta Osiyoda tutgan o’rnini yanada mustahkamladi. Bu yuksalish, ayniqsa, “Temir darvoza” orqali o’tgan savdo karvonlarining Boysun orqali o’tishi bilan bog’liq. Ushbu jarayon Boysunning iqtisodiy ahamiyatini oshirgan va uni mintaqadagi savdo yo’llarining muhim markaziga aylantirgan.

Boysunning tarixiy rivojlanishi va madaniy merosi, ayni paytda, bu hududning o’ziga xos etnogenetik va arxeologik xususiyatlarini ham yoritadi. Bu yurtning qadimiy nomlaridan

²⁵⁰ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Таржимон: О. Тогаев – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 144-146

biri bo'lgan Basand, keyinchalik Boysun nomiga o'zgarib, xalq xotirasida va madaniy manbalarda o'z o'rnini mustahkamlagan. Bugungi kunda Boysunning tarixiy merosi nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki mintaqaning turistik salohiyatini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. (Танланган дostonлар) – Тошкент: Гафур Ғулом, 1984. – 677 Б.
2. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. (Йўллар ва ўлкалар китоби). Араб тилидан таржима: Р.Т.Худайбергaнов. – Тошкент: Фaн, 2019. – 480 Б.
3. Худуд ул-олам. (Мовароуннахр тавсифи) (Масул мухaрир М. Исхоқов). Тарж.: О. Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 64 Б.
4. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-Ахбар. Л. М. Епифановой.
5. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б. + 16 илова.
6. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Таржимон: О.Тогаев – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 Б.
7. Хидиров А. Чағаниён тарихи. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002. – 226 Б.
8. Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. Akademnashr, 2011. – 430 б.
9. Yakubova D.T. Surxondaryo tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2022. – 246 bet.